Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

TARIXIY XOTIRANING AXLOQIY-ESTETIK VA TURISTIK TALQINI (“QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI” MUZEYI MISOLIDA)

Baxtiyor Mirzaraximov*
Farg‘ona davlat universiteti Falsafa kafedrasi dotsenti (PhD)
✉ alfargoniy.uz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Farg‘ona Davlat Universiteti qoshidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi misolida tarixiy xotiraning axloqiy-estetik mazmuni va uning zamonaviy turizm tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzey ekspozitsiyasining me‘moriy-badiiy tuzilishi, uning milliy xotira va fuqarolik ongini shakllantirishdagi vazifasi hamda xalqaro “qorong‘u turizm” tadqiqotlari kontekstidagi o‘rni yoritiladi. Repressiya qurbonlari xotirasini abadiylashtirishning axloqiy chegaralari, estetik vositalari va turistik salohiyatini yaxlit nazariy model asosida tavsiflanadi. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi nafaqat tarixiy adolatni tiklash instituti, balki milliy o‘zlikni anglash va axloqiy tarbiyaning zamonaviy turistik-madaniy resursi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar

tarixiy xotira, qatag‘on qurbonlari, muzey, axloqiy-estetik talqin, turizm, milliy o‘zlik, dark tourism, og‘ir meros.

DOI: 10.5281/zenodo.23279495

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda tarixiy xotira nafaqat o‘tmishni saqlash vositasi, balki millat o‘zligini anglashning, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning va axloqiy tarbiyaning muhim mexanizmiga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda 1930–1950-yillardagi ommaviy siyosiy qatag‘onlar qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [4; 2]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-sonli farmoyishi qatag‘on qurbonlari merosini chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilab berdi [5; 1]. Ushbu hujjat asosida mamlakat bo‘ylab o‘nlab hududiy muzeylar tashkil etilib, markaziy muzey ekspozitsiyasi tubdan yangilandi. Repressiya siyosati tarixini yoritishga bag‘ishlangan R.Shamsutdinovning “Qishloq fojiasi” tadqiqoti sovet kollektivlashtirish siyosatining O‘zbekiston qishloq aholisiga ta‘sirini hujjatli asosda ochib bergan [2; 34], B.Qosimovning “Milliy istiqlol g‘oyasi va repressiyalar” asari esa repressiya tarixini milliy istiqlol mafkurasi kontekstida tahlil qilgan [3; 12]. Ikkala tadqiqot ham qatag‘on tarixini alohida fojia sifatida emas, balki millat taqdirining ajralmas qismi sifatida talqin qilish zaruratini asoslab beradi, bu esa muzey ekspozitsiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy poydevorini tashkil etadi. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, davlat tarixiy xotirani shunchaki arxiv materiali sifatida emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi va xalqaro miqyosda mamlakat qiyofasini shakllantiruvchi resurs sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, xotira institutlarining institutsionalizatsiyasi ularning faqat ma‘rifiy emas, balki turistik-madaniy funksiyasini ham kuchaytirmoqda. Toshkent shahridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi bugungi kunda nafaqat ilmiy-tadqiqot muassasasi, balki mamlakatga tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun ham tavsiya etiladigan tarixiy-madaniy obyektga aylangan [6]. Bu holat tadqiqotchilar oldiga yangi savol qo‘yadi: og‘ir va fojiali tarixni aks ettiruvchi muzeyni turistik obyekt sifatida taqdim etishning axloqiy chegaralari qayerda va uning estetik vosita-

lari qanday bo‘lishi lozim? Mazkur maqolada aynan shu muammo tarixiy xotiraning axloqiy-estetik mazmuni va uning turistik talqini o‘rtasidagi murakkab munosabat “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi misolida tahlil qilinadi.

Falsafiy-aksiologik nuqtayi nazardan, xotira makonlari bu shunchaki fizik obyektlar emas, balki qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi ramziy maydonlardir. Rossiyalik tadqiqotchi A.Kovalyovning ta‘kidlashicha, zamonaviy muzey nafaqat artefaktlarni saqlovchi joy, balki xotira axloqiy amaliyotga aylanadigan, tarixiy aybni tan olish va adolatga intilish jarayoni kechadigan makondir [10; 81]. Bu qarash muzeyning passiv saqlovchi emas, balki faol axloqiy sub‘yekt sifatidagi rolini ochib beradi. Shu ma‘noda, muzey tashrif buyuruvchini nafaqat ma‘lumot bilan tanishtiradi, balki uni o‘tmish bilan ichki muloqotga, empatik tajribaga undaydi. Boshqa tomondan, D.A.Anikin va O.V.Golovasheva madaniy xotira travmasi tushunchasini tahlil qilar ekan, jamoaviy travmaning muzeylashtirilishi jarayonida asl fojianing “estetiklashtirilishi” xavfi mavjudligini ko‘rsatadi [8; 91]. Ular travmaning haddan tashqari ramziylashtirilishi asl voqealarning og‘irligini yumshatib, uni shunchaki “tomosha” obyektiga aylantirib qo‘yishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Bu ogohlantirish “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi kabi institutlar uchun ham dolzarb, chunki ularning ekspozitsiyasida haykaltaroshlik, me‘morchilik va rang-tasvir vositalari orqali og‘ir tarixiy voqealar badiiy shaklga solinadi. Demak, muzey oldida ikki tomonlama vazifa turadi: bir tomondan tarixiy haqiqatni buzmasdan yetkazish, ikkinchi tomondan uni tashrif buyuruvchi uchun idrok etsa bo‘ladigan, hissiy jihatdan ta‘sirchan shaklda taqdim etish. Ushbu ikki vazifa o‘rtasidagi muvozanat aynan axloqiy-estetik talqin muammosining mag‘zini tashkil etadi.

Xalqaro turizmshunoslikda so‘nggi yillarda “qorong‘u turizm” yoki “og‘ir meros” tushunchalari faol muhokama qilinmoqda. A.C.Wight va hammualliflarining tahliliga ko‘ra, tadqiqotchilar bunday obyektlarga tashrif buyuruvchilarning motivatsiyasini endi shunchaki “o‘lim va tomoshabinlik” bilan emas, balki tarixiy zo‘ravonlik, adolatsizlik va jamoaviy xotira ustida tanqidiy fikrlash ehtiyoji bilan bog‘lamoqda [13; 6]. Ularning fikricha, bunday joylar tashrif buyuruvchilarda faqat hissiy tajriba emas, balki ijtimoiy-axloqiy refleksiya uyg‘otadi, bu esa muzeylarning ta‘lim-tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiradi. S.Hosseini, R.Cortés-Macías va F.Almeida-García esa dark tourism sharoitida “esda qolarli sayohat tajribasi” kontseptsiyasini kengaytirib, bunday tashriflarning odatiy sayyohlik tajribalaridan farqli o‘laroq chuqurroq hissiy iz qoldirishini isbotlaydi [14; 24]. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, salbiy his-tuyg‘ular qayg‘u, hamdardlik, tashvish aksincha xotirani mustahkamlaydi va tashrifni “unutilmas” qiladi. Bu xulosa “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyidagi “Iztirob haykali” kabi ramziy elementlarning nima uchun tashrif buyuruvchilarga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini tushuntirishga yordam beradi. Shu bilan birga, K.Garlik o‘z tadqiqotida bunday joylarni turistik obyekt sifatida targ‘ib qilishning axloqiy xavf-xatarlarini, xususan, hukumat va biznes manfaatlarining fojiani tijoratlashtirish ehtimolini alohida ta‘kidlaydi [17; 52]. Uning kuzatishlaricha, davlat organlari bunday joylarga aralashuvining darajasi minimal saqlashdan tortib faol ekspozitsion siyosatgacha muzeyning axloqiy qiyofasini belgilab beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “qorong‘u turizm” va “og‘ir meros” mavzusi bo‘yicha xalqaro adabiyotlarda asosan G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyo obyektlari (konslagerlar, qamoqxona-muzeylar, halokat joylari) misolida tadqiqotlar olib borilgan. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistondagi sovet totalitar tuzumi qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan muzeylarning axloqiy-estetik va turistik jihatlari deyarli maxsus tadqiqot obyektiga aylanmagan. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi. Mazkur maqolaning maqsadi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi misolida tarixiy xotiraning axloqiy-estetik mazmunini ochib berish va uning zamonaviy turizm tizimidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, muzeyning tarixiy-me‘moriy tuzilishi va ramziy tilini tahlil qilish;

ikkinchidan, uning milliy xotira va fuqarolik tarbiyasidagi vazifasini aniqlash;

uchinchidan, xalqaro “qorong‘u turizm” tadqiqotlari kontekstida muzeyning turistik salohiyatini baholash;

to‘rtinchidan, xotirani turistik maqsadlarda taqdim etishning axloqiy chegaralarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, fenomenologik va kontent-tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tashkil topish bosqichlarini me‘yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 936-sonli qarori [4; 1] va Prezidentning 2020-yildagi F-5598-sonli farmoyishi [5; 2] asosida davrlashtirish va ularni boshqa mamlakatlardagi o‘xshash institutlar, xususan Rossiyadagi GULAG tarixi davlat muzeyi va Yekaterinburgdagi repressiya qurbonlari memoriali tajribasi bilan qiyoslash mumkin [11; 3]. Fenomenologik metod muzey makonining tashrif buyuruvchi tomonidan qanday idrok etilishini, ya‘ni me‘moriy shakllar, haykaltaroshlik kompozitsiyalari va ekspozitsion tartib orqali hissiy-axloqiy tajriba qanday shakllanishini tahlil qilishga xizmat qildi. Kontent-tahlil metodi yordamida muzeyning rasmiy portalida keltirilgan ma‘lumotlar [6], shuningdek Manbalar uch guruhga ajratildi:

birinchi guruhga O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tadqiqotchilarining ishlari [1; 2; 3; 7] hamda me‘yoriy hujjatlar [4; 5] kiritildi;

ikkinchi guruhga Rossiya va MDH olimlarining madaniy xotira, “og‘ir meros” va muzeyshunoslikka oid tadqiqotlari [8; 9; 10; 11; 12] jamlandi;

uchinchi guruhga esa G‘arb va xalqaro turizmshunoslarning dark tourism, xotira turizmi va axloqiy dilemmalar bo‘yicha ishlari [13–20] kiritildi. Bunday uch bosqichli manba tanlovi tadqiqotga fanlararo va mintaqalararo qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini berdi, bu esa xulosalarning ob‘yektivligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi 2002-yil 31-avgustda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi tarkibida ochilgan bo‘lib, uning bunyod etilishida me‘morchilik va badiiy hunarmandchilikning milliy an‘analari faol qo‘llanilgan [6]. Muzey binosi 20x20 metrlik murabba tarhga ega bo‘lib, markaziy gumbaz “Shahidlar xotirasi” majmuasidagi ayvon gumbazi bilan uyg‘unlashtirilgan, bino atrofini 28 ustunli ochiq ayvon o‘rab turadi [7; 1]. Bino bezagida marmar, haqiq va granit toshlar, rangli koshinlar, yog‘och o‘ymakorligi hamda ganchkorlik kabi milliy hunarmandchilik turlaridan foydalanilgani uning nafaqat tarixiy, balki badiiy-estetik qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu me‘moriy yechim tasodifiy emas, an‘anaviy milliy shakllar orqali fojiali tarixni milliy madaniyat kontekstida taqdim etish, uni begonalashtirilgan “sovet” hodisasi emas, balki xalqning umumiy qismati sifatida idrok ettirish maqsadini ko‘zlaydi. Muzey zali markazida o‘rnatilgan “Iztirob haykali” farzandini kutayotgan ota-ona, yorini sog‘ingan ayol va otasiz o‘sgan bolani tasvirlovchi kompozitsiya muzeyning hissiy-axloqiy markazini tashkil etadi [7; 1]. Ushbu haykal orqali muzey mualliflari statistik raqamlar va hujjatlar tilidan insoniy, oilaviy fojia tiliga o‘tadilar, bu esa tashrif buyuruvchida empatik javob uyg‘otishning asosiy vositasi hisoblanadi. Muzey yettita bo‘limdan iborat bo‘lib, har biri ma‘lum tarixiy davrni 1920–30-yillardagi turkiston ziyolilariga qarshi repressiyalardan tortib mustaqillik yillarida xotirani tiklashgacha qamrab oladi [6; 7]. Bunday xronologik-tematik tuzilma tashrif buyuruvchiga fojianing nafaqat bir martalik voqea, balki uzoq davom etgan tizimli siyosat natijasi ekanligini tushunish imkonini beradi.

Aksiologik nuqtayi nazardan qaraganda, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi tarixiy xotirani shaxsiy fojiadan umummilliy qadriyatga aylantirish jarayonining institutsional ifodasidir. O‘.O‘. Yoqubovning tadqiqotiga ko‘ra, 1930–1950-yillardagi siyosiy repressiyalar tarixini o‘rganish va qurbonlar xotirasini tiklash jarayoni O‘zbekistonda ijtimoiy xotirani saqlash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashning muhim vositasiga aylangan [1; 47]. Maqolada bu jarayon shunchaki tarixiy adolatni tiklash emas, balki jamiyatning o‘z-o‘zini anglash mexanizmi sifatida talqin qilinadi, ya‘ni o‘tmishdagi og‘ir sahifalarni bilish orqali jamiyat bugungi qadriyatlarini yanada aniqroq belgilaydi. Bu yondashuv muzey ekspozitsiyasida ham o‘z aksini topgan: repressiya qurbonlari orasida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi milliy ziyolilarning nomlari alohida o‘rin egallaydi, bu esa fojiani mavhum statistik hodisadan aniq, tanish siymolar orqali his qilinadigan voqelikka aylantiradi. Shu bilan birga, davlat darajasidagi me‘yoriy hujjatlar xususan 2020-yildagi Prezident farmoyishi repressiya qurbonlari nomlarini tiklash va ularning merosini o‘rganishni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi [5;

1]. Bu esa xotirani nafaqat muzey devorlari ichida, balki ta‘lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ilmiy adabiyotlar orqali ham tarqatish imkonini yaratdi. Qatag‘on qurbonlari xotirasi endi alohida oilalar yoki mahalliy jamoalarning ichki masalasi emas, balki umummilliy identifikatsiya resursiga “biz kimmiz va qanday tarixiy yo‘lni bosib o‘tdik” degan savolga javob beruvchi asosiy manbalardan biriga aylandi.

Muzeyning estetik tili uning axloqiy mazmunini yetkazishning asosiy vositasi hisoblanadi. A.A.Kovalyovning ta‘kidlashicha, muzey artefaktlar, ramzlar, tasvirlar va tarixiy naratsiyalar orqali sheriklik hissini va tarixiy uzluksizlikni shakllantiradi, bunda muzey xotirani axloqiy amaliyotga aylantiruvchi maydonga aylanadi [10; 80]. Bu qarashni “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi misolida ko‘radigan bo‘lsak, tomoshabinni avval milliy-madaniy kodlar orqali “o‘ziniki” makonga chorlaydi, so‘ngra ushbu tanish makon ichida og‘ir tarixiy haqiqat bilan yuzlashtiradi. Bunday estetik strategiya tomoshabinning himoya reaktsiyasini begona va uzoq voqea sifatida rad etish istagini yumshatadi va uni voqeaga ichkaridan qarashga undaydi. Shu bilan birga, D.A.Anikin va O.V.Golovasheva ta‘kidlagan xavf travmaning “estetiklashtirilishi” orqali uning og‘irligi yumshab ketishi mazkur muzey kontekstida ham mavjud bo‘lishi mumkin [8; 92]. Masalan, haykaltaroshlik va me‘morchilikning yuqori badiiy darajasi ba‘zi tashrif buyuruvchilarda voqealarning fojiaviyligidan ko‘ra binoning go‘zalligiga e‘tiborni ko‘proq qaratishi mumkin. Shu bois, muzey ekspozitsiyasida badiiy-estetik vositalar bilan bir qatorda hujjatli materiallar, arxiv fotosuratlari va shaxsiy buyumlarning muvozanatli taqdim etilishi katta ahamiyat kasb etadi bu ikkalasining uyg‘unligi tashrif buyuruvchida ham estetik ta‘sirlanish, ham tarixiy jiddiylikni his qilish imkonini beradi.

Turistik nuqtayi nazardan, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi xalqaro “qorong‘u turizm” tipologiyasiga to‘liq mos keladigan obyekt hisoblanadi. S.Hosseini va hammualliflarining tadqiqotiga ko‘ra, bunday joylarga tashrif salbiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishiga qaramay, aksincha, odatiy sayyohlik tajribalariga nisbatan ancha chuqur va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan taassurot qoldiradi [14; 30]. Bu xulosa muzeyning turistik marshrutlarga kiritilishini nafaqat axloqiy, balki amaliy jihatdan ham asoslaydi chunki bunday tashriflar sayyoh tajribasining sifatini va mazmunini boyitadi. S.An, L.Jiang va T.Ekning so‘nggi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, dark tourism obyektlarida tashrif buyuruvchining ongli e‘tibor darajasi uning hissiy tajribasiga va, natijada, tashrifning “esda qolarli”lik darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [16; 4]. Bu topilma amaliy ahamiyatga ega. Agar muzey ekskursiya dasturi tashrif buyuruvchini shoshilinch emas, balki sekin va mulohaza yuritishga imkon beruvchi tarzda tashkil etsa, uning ta‘lim-tarbiyaviy samarasi oshadi. Bundan tashqari, qamoqxona-muzeylarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, “qorong‘ulik” tashrif buyuruvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro ta‘sir orqali birgalikda shakllantiriladi, ya‘ni bir xil ekspozitsiya turli guruhlar uchun turlicha hissiy ma‘no kasb etishi mumkin [18; 15]. Bu xulosa muzey ekskursiya guruhlarini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, meros turizmi sohasidagi tadqiqotlar yangilik hissi tashrif buyuruvchilarning ijobiy og‘zaki tavsiyalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini aniqlagan [20; 250], bu esa muzey ekspozitsiyasini davriy yangilab turishning marketing nuqtai nazaridan ham muhimligini tasdiqlaydi. Boshqa tomondan, J.Magano, M.Bandur va D.Ilievning tadqiqotida ta‘kidlanishicha, “qorong‘u turizm” obyektlari mas‘ul turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi, biroq yuqori tashrif oqimi joyning qadr-qimmatiga putur yetkazish xavfini ham keltirib chiqaradi [19; 238]. Bu xulosa “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi uchun ham dolzarb. Muzeyni ommaviy turistik marshrutlarga kengroq kiritish istagi bilan uning xotira makoni sifatidagi jiddiyligini saqlab qolish o‘rtasida muvozanat topish zarur.

Mintaqaviy qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sobiq sovet hududida repressiya qurbonlari xotirasini muzeylashtirish tajribasi turlicha yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Ye.D.Bugrovaning tadqiqotida “og‘ir meros” tushunchasi madaniy-bilim beruvchi turizm resursi sifatida ko‘rib chiqiladi, unda xotira joylarini muzeylashtirish jarayonida asllikni saqlash muammosi alohida o‘rin egallaydi [9; 112]. Bugrova bunday obyektlar tashrif buyuruvchida murakkab hissiy holatlarni uyg‘otishiga qaramay, ular jamoaviy xotiraning muhim elementlari bo‘lib, sezilarli axloqiy salohiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Rossiyadagi GULAG tarixi davlat muzeyi tashabbusi bilan tashkil etilgan Rossiya xotira muzeylari assotsiatsiyasi tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, bunday muzeylarning asosiy vazifasi og‘riqli voqealarni “anglash” jarayonini institutsionalizatsiya qilishdan iborat, ular oddiy tarixiy muzeylardan farqli o‘laroq doimiy ravishda o‘tmish nizolari bilan ishlashni talab qiladi [11; 2]. Sahorov markazining “Huquqsizlik xotirasi” dasturi doirasidagi ma‘lumotlar bazasi esa Toshkentdagi

“Shahidlar xotirasi” majmuasini sobiq SSSR hududidagi shunga o‘xshash yodgorliklar tizimiga qo‘shib, uni mintaqaviy va xalqaro kontekstga joylashtiradi [12]. Bu qiyosiy manzaraga tayangan holda aytish mumkinki, O‘zbekistondagi muzey nafaqat milliy, balki postsovet makonidagi umumiy xotira madaniyati kontekstida ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan noyob obyektdir, chunki u totalitar tuzum tarixini milliy uyg‘onish va mustaqillik naratsiyasi bilan bevosita bog‘laydi, bu esa ko‘plab boshqa mintaqalardagi shunga o‘xshash muzeylarda kamdan-kam uchraydigan xususiyatdir.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini muhokama qilar ekanmiz, eng dolzarb masalalardan biri xotira makonlarini turistik jalb qilish bilan ularning axloqiy jiddiyligini saqlab qolish o‘rtasidagi ziddiyat ekanligini alohida ta‘kidlash lozim. K.Garlikning tadqiqotida ko‘rsatilishicha, davlat va biznes tuzilmalarining bunday joylarga aralashuvi ularning axloqiy qiyofasini tubdan o‘zgartirishi mumkin komersiyalashtirish bir tomondan obyektni saqlash uchun mablag‘ jalb qilsa, ikkinchi tomondan uni “tomoshabop” mahsulotga aylantirish xavfini keltirib chiqaradi [17; 58]. Bu kuzatuv “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi kontekstida ham dolzarb, ayniqsa muzeyning turistik marshrutlarga faol jalb qilinishi jarayonida. Auschwitz-Birkenau muzeyi misolida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, bunday joylarning kommersiyalashtirilishi ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga yordam bersa-da, tashrif buyuruvchilar xulq-atvorining muvofiqligi va ekspozitsiyani taqdim etish uslubi doimiy nazoratni talab qiladi [15; 6]. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining turistik salohiyatini rivojlantirishda davlat nazorati va ilmiy jamoaning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi bu, xususan, muzey qoshida tashkil etilgan tarixchi olimlar guruhining faoliyatida o‘z ifodasini topgan [7; 2]. Bunday institutsional yondashuv muzeyning bozor mexanizmlariga to‘liq bo‘ysunib qolishining oldini oladi va uning ilmiy-ma‘rifiy maqomini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shunday qilib, komersiyalashtirish xavfi mutlaq inkor etilishi shart bo‘lmagan, balki institutsional mexanizmlar orqali boshqarilishi lozim bo‘lgan omil sifatida qaralishi kerak.

Xotira makonlarining ta‘sirchanligi ko‘p jihatdan ularning “asllik” darajasiga bog‘liq. Ye.D.Bugrova ta‘kidlaganidek, og‘ir meros obyektlarini muzeylashtirish jarayonida asl artefaktlar bilan rekonstruksiya qilingan yoki ramziy elementlar o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri belgilash muhim metodologik muammo hisoblanadi [9; 118]. Agar muzey haddan tashqari ramziy-badiiy vositalarga tayansa, tashrif buyuruvchida voqealarning “sahnalashtirilgan” ekanligi haqida shubha paydo bo‘lishi mumkin, bu esa ishonch darajasini pasaytiradi. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi bu muammoni asl arxiv hujjatlari, shaxsiy buyumlar va “qamoq mashinasi” kabi haqiqiy artefaktlarni ramziy haykaltaroshlik kompozitsiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali muvaffaqiyatli hal qiladi, biroq bu muvozanatni doimiy ilmiy nazorat ostida saqlash zarurati saqlanib qoladi. D.A.Anikin va O.V.Golovasheva madaniy travmaning konseptual tahlilida shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy travmani anglash jarayoni bir martalik tadbir emas, balki jamiyat tomonidan doimiy ravishda qayta ishlanadigan, avloddan-avlodga o‘tuvchi jarayondir [8; 94]. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, muzeyning vazifasi nafaqat statik ekspozitsiyani namoyish etish, balki har bir yangi avlod bilan yangi muloqot shakllarini masalan, interaktiv texnologiyalar, sensorli kiosklar va raqamli arxivlar orqali izlab topishdan iborat. Ma‘lumotlarga ko‘ra, muzey ekspozitsiyasi so‘nggi yillarda aynan shu yo‘nalishda zamonaviy sensorli kiosklar va monitorlar bilan jihozlanish orqali yangilangan, bu esa uning kelajak avlodlar bilan muloqot qilish strategiyasini ko‘rsatadi [7; 2].

Muzeyning ta‘lim-tarbiyaviy funksiyasi tadqiqot natijalarida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘.O‘.Yoqubov ta‘kidlaganidek, qatag‘on tarixini o‘rganish yosh avlodda tarixiy xotirani saqlash va milliy tafakkurni mustahkamlash borasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [1; 49]. Bunday yondashuv nafaqat O‘zbekistonga xos, balki xalqaro tajribada ham keng tarqalgan. “Qorong‘u turizm” sohasidagi tadqiqotlar milliy identifikatsiya, motivatsiya va xotira obyektiga tashrif o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi, ya‘ni bunday joylarga tashrif buyuruvchilarning katta qismi o‘z millati tarixi bilan chuqurroq tanishish istagidan kelib chiqadi [16; 5]. Bu bog‘liqlik “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga ham tegishli bo‘lib, muzeyning “Qatag‘on tarixi yosh ijodkorlar nigohida” kabi tadbirlari orqali yosh rassomlar, haykaltaroshlar va dizaynerlarni tarixiy mavzularga ijodiy yondashuvga jalb qilishi buning yaqqol dalilidir. Bunday tadbirlar orqali tarixiy xotira nafaqat passiv qabul qilinadigan ma‘lumot sifatida emas, balki yoshlarning shaxsiy

ijodiy tajribasiga aylanadigan jonli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ta‘lim-tarbiyaviy funksiyani kuchaytirish uchun muzey va oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan hududlardagi o‘nlab muzeylar tarmog‘ini yagona ilmiy-uslubiy markaz atrofida muvofiqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda, chunki markazlashtirilgan uslubiy yondashuvsiz turli hududiy muzeylar orasida ekspozitsion va axloqiy standartlarning bir xilligini ta‘minlash qiyinlashadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi kabi obyektlarni o‘rganish uchun uch qatlamli aksiologik, estetik va turistik nazariy model taklif etish mumkin. Aksiologik qatlam muzeyning tarixiy adolat, milliy o‘zlik va avloddan-avlodga o‘tuvchi qadriyatlarni shakllantirish funksiyasini qamrab oladi va u davlat siyosati hamda ilmiy tadqiqotlar orqali institutsionalizatsiya qilinadi [1; 5]. Estetik qatlam me‘moriy-badiiy vositalar orqali og‘ir tarixiy haqiqatni tashrif buyuruvchi uchun idrok etsa bo‘ladigan shaklga keltirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi, bunda asllik va ramziylik o‘rtasidagi muvozanat markaziy ahamiyat kasb etadi [9; 10]. Turistik qatlam esa muzeyni zamonaviy sayyohlik tizimiga integratsiya qilish, uning xalqaro “qorong‘u turizm” tajribasi bilan uyg‘unlashtirish va shu bilan birga komersiyalashtirish xavflaridan himoya qilish vazifalarini birlashtiradi [13; 17; 19]. Ushbu uch qatlamning o‘zaro uyg‘unligi ya‘ni tarixiy adolatga xizmat qiluvchi aksiologik maqsad, hissiy-axloqiy ta‘sir ko‘rsatuvchi estetik vosita va mas‘uliyatli tarzda tashkil etilgan turistik infratuzilma muzeyning barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart hisoblanadi. Model shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch qatlamdan birortasining boshqalariga nisbatan haddan tashqari kuchayishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: sof aksiologik yondashuv muzeyni quruq mafkuraviy vositaga, sof estetik yondashuv uni “go‘zal, ammo bo‘sh” obyektga, sof turistik yondashuv esa uni tijorat mahsulotiga aylantirib qo‘yishi mumkin. Shu bois, muzey rahbariyati va ilmiy jamoasi oldida turgan asosiy vazifa ushbu uch qatlam o‘rtasidagi dinamik muvozanatni doimiy ravishda saqlab turishdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi misolida o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, tarixiy xotiraning muzeylashtirilishi murakkab, ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, unda aksiologik, estetik va turistik jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida muzeyning tarixiy-me‘moriy tuzilishi milliy hunarmandchilik an‘analari asosida shakllantirilgani, uning ekspozitsiyasi esa xronologik-tematik tartibda tashkil etilib, shaxsiy fojiani umummilliy xotiraga aylantirish vazifasini bajarishi aniqlandi [1; 6; 7]. Xalqaro “qorong‘u turizm” tadqiqotlari kontekstida tahlil qilinganda, muzey global tendensiyalarga mos keladi: u tashrif buyuruvchilarda chuqur hissiy tajriba va uzoq muddatli xotira shakllantiradi, biroq shu bilan birga komersiyalashtirish va “estetiklashtirish” xavflarini ham o‘zida yashiradi [8; 14; 17]. Mintaqaviy qiyosiy tahlil esa O‘zbekiston tajribasining postsovet xotira madaniyati kontekstida o‘ziga xos o‘rin egallashini, chunki u totalitar o‘tmishni milliy mustaqillik va uyg‘onish naratsiyasi bilan uzviy bog‘lashini ko‘rsatdi [9; 11; 12]. Amaliy tavsiya sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: muzey ekspozitsiyasida asl artefaktlar va badiiy-ramziy vositalar o‘rtasidagi muvozanatni ilmiy asosda saqlash; ekskursiya dasturlarini tashrif buyuruvchida mulohaza yuritish imkonini beruvchi tarzda ishlab chiqish; hududiy muzeylar tarmog‘ini yagona uslubiy markaz asosida muvofiqlashtirish; hamda xalqaro xotira muzeylari tarmoqlari bilan ilmiy hamkorlikni kengaytirish. Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, u asosan kontent-tahlil va adabiyotlar tahliliga tayangan bo‘lib, tashrif buyuruvchilarning bevosita so‘rovnoma natijalarini o‘z ichiga olmaydi; shu sababli kelgusi tadqiqotlarda muzeyga tashrif buyuruvchilarning empirik so‘rovi orqali olingan ma‘lumotlarni jalb qilish ushbu nazariy modelni yanada boyitishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARFOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoqubov O‘.O‘. Qatag‘onlar tarixi, 1930–1950 yillardagi siyosiy repressiyalar va qatag‘on qurbonlari xotirasining ijtimoiy-madaniy ahamiyati // Journal of Advanced Research and Stability. - 2024. — №3. — B. 45–52.

2. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi (qatag‘on siyosati tarixidan). - Toshkent: Sharq, 2005. — 288 b.

3. Qosimov B. Milliy istiqlol g‘oyasi va repressiyalar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2000. - 176 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oo‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida

Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 22-noyabrdagi 936-son qarori // lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqurroq o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son farmoyishi.

6. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyi rasmiy portali: muzey tarixi va ekspozitsiyasi haqida ma‘lumot. - muzey-xotira.uz, 2024.

7. Milliy tarixni qayta tiklash oson kechmagan… Oqlanganlarning aksariyati Turkistondagi jadidchilik namoyandalaridir // Yangi O‘zbekiston. - 2023-yil 31-avgust, 177-son.

8. Аникин Д.А., Головашева О.В. Травма культурной памяти: концептуальный анализ и методологические основания исследования // Вестник Томского государственного университета. - 2021. - №2. - С. 88–96.

9. Бугрова Е.Д. «Трудное наследие» как ресурс культурно-познавательного туризма: дис. … канд. наук. - Екатеринбург: Уральский федеральный университет, 2025. - 187 с.

10. Ковалёв А.А. Роль музеев в сохранении культурной памяти // Вестник Московского государственного института культуры. - 2025. - №2. - С. 79–86.

11. Государственный музей истории ГУЛАГа. Ассоциация российских музеев памяти: объединяемся, чтобы сохранить память о жертвах политических репрессий. - М., 2023.

12. Сахаровский центр. Программа «Память о бесправии»: база данных памятников и памятных знаков жертвам политических репрессий на территории бывшего СССР. - М., 2023.

13. Wight A.C., Wyatt J., Chen J. Rethinking dark tourism: practitioner perspectives, and future research directions // Tourism Recreation Research. - 2025. - Vol. 50. - P. 1–15.

14. Hosseini S., Cortés-Macías R., Almeida-García F. Extending the memorable tourism experience construct: An investigation of tourists’ memorable dark experiences // Journal of Vacation Marketing. -2024. - Vol. 30(1). - P. 21–44.

15. Ethical Dilemma in Dark Tourism: A case of Auschwitz-Birkenau Concentration Camp — Poland: Master Thesis. — Aalborg University, 2024. — 62 p.

16. An S., Jiang L., Eck T. Are dark tourism experiences memorable? Examining mindfulness and memorable tourism experiences in dark tourism // Humanities and Social Sciences Communications. — 2025. — Vol. 12. — Art. 1847.

17. Garlick K. Morbid Curiosity: Exploring the Ethics of Dark Tourism: Doctoral Project. — West Chester, PA: West Chester University, 2022. — 94 p.

18. Social interaction and dark tourism in prison museums // Annals of Tourism Research. — 2025. — Vol. 112. — Art. 103904.

19. Magano J., Bandur M., Iliev D. Understanding the Dynamics and Impact of Dark Tourism // Modern Management Tools and Economy of Tourism Sector in Present Era: 8th International Thematic Monograph. — Belgrade: Association of Economists and Managers of the Balkans, 2024. — P. 233–246.

20. Rasoolimanesh S.M. et al. Novelty and word-of-mouth in heritage tourism experiences // Journal of Vacation Marketing. — 2022. — Vol. 28(3). — P. 245–260.